| <b>Shuxrat Ruziyev.</b>                                                                                                                                                               |     |
| Talabalar o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish oliy ta'lim jarayoni sifatini oshirish omili sifatida.....                                                                          | 401 |
| <b>Aziza Mamanova.</b>                                                                                                                                                                |     |
| Basketbolning asosiy tushunchalari: o'yin qoidasi va musobaqa tashkil qilish asoslari.....                                                                                            | 404 |
| <b>Sodiq Yuldashev.</b>                                                                                                                                                               |     |
| Talabalarni ta'lim jarayonida virtual ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlashning nazariy asoslari.....                                                                    | 407 |
| <b>Feruza Azimova.</b>                                                                                                                                                                |     |
| Neft-gaz sanoatiga oid terminlarni o'qitishda talabalarining strategik kompetensiyasini rivojlantirishda istiqbolli yondashuvlar.....                                                 | 409 |
| <b>Sodiq Raimov.</b>                                                                                                                                                                  |     |
| Zaxiradagi ofitserlarning xavfsizlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati.....                                                                                         | 412 |
| <b>Nilufar Karimova.</b>                                                                                                                                                              |     |
| Talabalarining kasbiy pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish.....                                                                                                              | 415 |
| <b>Mahmud Mamarasulov, Firdavs Ibromkhimov.</b>                                                                                                                                       |     |
| The issues, solutions, perspectives in expected ears of schooling in Uzbekistan: a population study.....                                                                              | 418 |
| <b>Nilufar Turanazarova.</b>                                                                                                                                                          |     |
| Boshlang'ich sinflarda nutq o'stirishning funksional asoslari.....                                                                                                                    | 421 |
| <b>Komil Muqimov, Shahrizoda Savurova.</b>                                                                                                                                            |     |
| Methodological aspects of organizing nanophysics training in Higher Educational Institutions.....                                                                                     | 424 |
| <b>Ақбаржон Расулов.</b>                                                                                                                                                              |     |
| Педагогик таълим кластери муҳитида “иктисодий билим асослари” фанини ўқитишнинг имкониятлари.....                                                                                     | 428 |
| <b>Дильбар Боймурзаева.</b>                                                                                                                                                           |     |
| Необходимость развития социальной креативности у будущих менеджеров образования.....                                                                                                  | 431 |
| <b>Shahnoza Beknayeveva.</b>                                                                                                                                                          |     |
| Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kadrlar saviyasi va salohiyatini oshirishdagi muammolar va ularning yechimlari.....                                                                | 434 |

## **Jiddin Toshpulatov.**

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quv dasturida Futbol darsining ahamiyati .....438

**Маликашон Арипходжаева, Урхияна Турабекова, Муслимон Баротов, Дилфуза Хикматиллаева.**

Геологические чрезвычайные ситуации, прогнозирование мониторинг и ликвидация .....441

**Tursunoy Bo'riyeva.**

Bolalarda tabiatga oid tadqiqiy-ijodiy ko'nikmalarni shakllantirish tamoyillari .....444

**Сарвиноз Салимова, Озода Джумаева.**

Методическая разработка и ее критерии .....447

**Nilufur Bo'riyeva.**

Pedagogik nizolarni boshqarishga oid olib borilgan ilmiy tadqiqotlar sharhi .....451

**Barkamoljon Pirmatov.**

Kasbiy ta'lim tizimidagi innovatsiyalar va ularning o'ziga xos xususiyatlari .....454

**Feruza Tursunova.**

"Vuca-dunyo" narrativlari sharoitida 7-sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish jarayoni .....458

**Sarvinaz Salimova, Mehriniso Makhmudova.**

Innovative information technologies in modern educational process .....460

**Elyor Kurbanov.**

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining ma'naviyatini shakllantirish masalasi va unga qo'yilgan talablar .....463

**Umriniso Ergasheva.**

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashni yo'lga qo'yishning nazariy asoslari .....467

**Oyshajon Usmonova.**

The importance of language translation within the context of human rights: English to Uzbek .....469

**Динара Сримбетова.**

Худудларда саноатни ривожлантиришда инновацион фаолият механизмларини такомиллаштириш (Тошкент шаҳри мисолида) .....472

**Gulkhan Genjemuratova.**

System of professional training for students in Higher Education Institutions based on an integrative approach to organic chemistry .....476

**Shaxnoza Xojimirzayeva.**

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida badiiy adabiyot bilan tanishtirish bolalarni estetik va axloqiy tarbiyalash vositasi .....479

**Bog'dagul Qarshiyeva.**

Muammoli metoddan foydalangan holda texnika yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetensiyasini oshirish .....482

**Zoirxo'ja O'lmasxo'jayev.**

Globallashtirish sharoitida jamiyat xavfsizligini ta'minlashda ijtimoiy tarmoqlardagi o'qitishning o'rni .....485

**Noila Mustafayeva.**

Enhancing EFL student's writing skills using multimodal technologies .....488

**Manzura G'ofurovna.**

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodiy rivojlantirish texnologiyalari .....491

**Dinara Mirtursunova.**

Fortifying stability: enhancing credit risk management in banking institutions .....494

**Janibek Suyenshiyev.**

Tarix fanini o'qitishda zamonaviy innovatsion ta'lim texnologiyalar asosida o'qitish .....497

**Feruza Tursunova.**

7-sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish .....499

## **Shoista Muratova.**

Emotsional hissiy holatlarning tuzilishi va ularning nerv-fiziologik asoslari .....503

**Nargizabonu Abirova.**

Improving the efficiency of investment activities in railway transport enterprises of the Republic of Uzbekistan .....507

**Zohida Qodirova.**

Bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning samarali omillari .....510

**Moxira Raxmatullayeva.**

Semiconductors and work with them .....512

**Shafolat Eshonqulova.**

Boshlang'ich sinflarda geometrik materiallarni o'rganish metodikasi .....515

**Dildora Umarova.**

Creative design and web art .....518

**Ravshan Shaynazarov.**

Mutaxxassislik fanlarni o'qitishda 3D modellashirish dasturlari va ulardan foydalanish ahamiyati .....521

**Sayera Azizova, Nargiza Musadjanova.**

Methodology for the development of visual-graphic competencies of specialists in a hybrid educational environment on the basis of didactic requirements (on the example of students of the technical direction) .....524

**Кахрамон Тураев, Ахат Тогаширов, Шухрат Муталов, Мизамитдин Самадов.**

Изучение растворимости системы, состоящий из гидроксида натрия – монохлоруксусной кислоты – вода .....527

**Nilufar Sirojiddinova.**

Maktabgacha tayyorlov yoshdagi bolalarni atrof muhitga munosabatini shakllantirishning samarali metod, shakl va usullari .....530

**Nargiza Diyorova.**

The standard forms and methods of teaching in Russian language lessons .....534

**Xolbek Raimov, Malohat Musurmanova.**

Laplace operator's spherical coordinates system's bosqichlari .....536

**Zukhra Sultanova.**

Information technology their effective use in foreign country .....540

**Dilshoda Gafurova.**

The effectiveness of innovation management methods in universities .....543

**Iroda Turanova.**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini PIRLS xalqaro baholash dasturlariga tayyorlash samaradorligini oshiruvchi metodlar .....545

**Laziza Xakimova.**

Different foreign language wide involvement among students .....549

**Jahongir Abduraxmonov.**

Talabalarning texnika xavfsizligiga oid bilimlarini rivojlantirishda interfaol metodlarning ahamiyati .....551

**Khabiba Alimukhamedova.**

A comparative typological study of verbs expressing human behavior .....556

**Dilafro'z Jo'rayeva.**

Maktabgacha tayyorlov guruh bolalarini STEAM o'qitish texnologiyasi asosida intellektual qobiliyatlarini takomillashtirishning ilmiy-pedagogik asoslari .....559

**Gulchehra Razzakova.**

Pedagogical science and educational process in English .....563

**Dilmurod Xolmurodov.**

Texnika ixtisoliklarida "Materialshunoslik va konstruksion materiallar texnologiyasi" fanini o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish uslublari .....565



• O'quvchi tomonidan o'zining o'quv faoliyati natijasiga baho berish, kursdoshlari bilan o'zining muvaffaqiyatlarini solishtirish, o'quv guruhida o'zining mavqeini aniqlashtirishga imkon yaratish;

• Ta'lim jarayonida o'quvchining ham nazariy ham amaliy faoliyatining optimal uyg'unligini ta'minlash;

• Ta'lim jarayonida o'quvchining unda mavjud bilimlar va tashqi muhitdagi ma'lumotlar asosida o'z kasbiy kompetensiyalariga baho berishini tashkil etish;

• Avvalroq shakllangan bilim va ko'nikmalarni ya'ni o'rganish obyektiga yo'naltirish bo'yicha fikriy faoliyatni tashkil etish, o'quvchining kasbiy tafakkurini maqsadli ravishda shakllantirish.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda bo'lajak temiryo'l xodimlarining kasbiy kompetentligi — bu kasbiy muammolarni hal qilishda amaliy tajriba, ko'nikma va bilimlar asosida muvaffaqiyatli harakat qilish qobiliyatidir degan xulosaga kelish mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. — T.: O'zbekiston, 2017. — 28 b.
2. Мирзиёев Ш.М. “Миллий тараққиёт йўлимизни катъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз” / Президент асарлари. 2-жилд. — Т.: Ўзбекистон, 2018. — 422 б.
3. Мельничук О. Модель специалиста / О.Мельничук, А.Яковлева // Высшее образование в России. — 2000. — № 5. — 19-25 с.
4. Равен Дж. Компетентность в современном обществе: выявление, развитие и реализация. — М.: Когито-Центр, 2002. — 400 с.
5. Сергеев А.Г. Компетентность и компетенции: монография / А.Г.Сергеев; Владим. гос. ун-т. — Владимир: Изд-во Владим. гос. ун-та, 2010. — 107 с.
6. Xodjayev B.X. Umumta'lim maktabi o'quvchilarining mustaqil fikrlashini shakllantirishning didaktik asoslari (5-7 sinf tarix darslari misolida): Pedagogika fanlari nomzodi. ... diss. — T., 2009. — 178 b.
7. Хуторской А. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированного образования // Направленное образование. — М., 2003. — №2. — С. 60-64.



## TALABA INTELEKTUAL FAOLIYATINI OPTIMALLASHTIRISH USULLARI

Dilfuza Raxmanova,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti  
“Psixologiya” kafedrası o'qituvchisi

### Annotatsiya

Ushbu maqolada talabalar intellektual faoliyatini optimallashtirishning psixologik determinantlari tushunchasining mazmuni va mohiyati ochib berilgan. Shuningdek, talabalarning intellektual rivojlantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari haqida so'z yuritilgan. Zamonaviy axborot voqeligi talablari talabani kasbiy ta'lim sharoitlarida o'qitish uchun yangi yo'l va yondashuvlarni izlab topish, bugungi kunda talabani “o'qishga” o'rgatish zaruratida, ya'ni bilim olish jarayonini boshqarishga o'rgatish zarurati va bu jarayon axborotni qabul qilishdan boshlab, unga tanqidiy baho berish, keyinchalik kasbiy vazifalarni bajarishda konkret vaziyatlarda qo'llash ilmiy asoslangan.

**Kalit so'zlar:** intellekt, aql, aqliy faoliyat, tafakkur, intellektual operatsiyalar, malaka, ko'nikmalar, falsafa, psixologiya, pedagogika.

### Аннотация

В данной статье раскрывается смысл и сущность понятия психологических детерминант оптимизации интеллектуальной деятельности студентов. Обсуждались также психолого-педагогические особенности интеллектуального развития студентов. Требования современной информационной реальности требуют поиска новых путей и подходов обучения студента в условиях профессионального образования, сегодня необходимо научить студента “читать”, то есть научить его управлять. Научно обоснован процесс приобретения знаний, причем этот процесс, начинающийся с получения информации, ее критической оценки, а затем использования ее в конкретных ситуациях при выполнении профессиональных задач.

**Ключевые слова:** интеллект, разум, мыслительная деятельность, мышление, интеллектуальные операции, компетентность, умения, философия, психология, педагогика.

### Annotation

*This article reveals the meaning and essence of the concept of psychological determinants of optimizing the intellectual activity of students. The psychological and pedagogical features of the intellectual development of students were also discussed. The requirements of modern information reality require the search for new ways and approaches to student learning in the context of vocational education; today it is necessary to teach the student to "read", that is, to teach him to manage the process of acquiring knowledge, and this process begins with obtaining information, its critical evaluation, and then using it in specific situations when performing professional tasks.*

**Keywords:** intelligence, mind, mental activity, thinking, intellectual operations, competence, skills, philosophy, psychology, pedagogy.

Hozirda ta'lim tizimini takomillashtirish orqali har tomonlama yetuk, barkamol, irodali, fidoiy va tashabbuskor kadrlarni tayyorlashga katta e'tibor berilyapti. Professional ta'lim tizimidagi kasb-hunar kollejlari uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, mutaxassislar malakasini oshirish, sohani jadal rivojlantirish va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi uzviy aloqa tizimini takomillashtirish bo'yicha ularning o'rtasida o'zaro manfaatli innovatsion hamkorlikka erishilmoqda.

Ilmiy va innovatsion sohalardagi hamkorlik mamlakatning global iqtisodiy makondagi nufuzini oshiradi.

Shiddat bilan yangilanayotgan zamonda ixtirolar, ilmiy tadqiqotlar, innovatsion g'oyalar, texnik ishlanmalar va ularni tijoratlashtirish o'ta muhim sanaladi. Aynan ularning ko'lam va sifati raqobatbardosh, daromadi yuqori mahsulotlar yaratishga xizmat qiladi. O'z navbatida, xalqaro ilmiy loyihalarda ishtirok etish mamlakat ilmiy salohiyati darajasini belgilaydi.

Ilmiy ishlanma va texnologik yangiliklar jamiyat hayotining barcha jabhalarini bog'lovchi mexanizmga aylanayotgan hozirgi davrda mazkur sohalarda hamkorlikni kengaytirib turib, jahon bozorlarida raqobatbardoshlikka erishib bo'lmaydi.

Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan ham ilmfan va innovatsiyalar sohasida xalqaro aloqalarni kengaytirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Vazirlik faoliyati samaradorligini oshirish va ilg'or xorijiy tajribalarni joriy etish maqsadida Germaniya, AQSh, Qozog'iston, Avstriyadan yuqori malakali xorijiy mutaxassislar maslahatchi sifatida jalb qilindi.

Fan va innovatsiyalar sohasida hamkorlikni rivojlantirish maqsadida Xitoy, Rossiya, Hindiston, Belarus, Qirg'iziston, Tojikiston hamda MDH bilan hukumatlararo bitimlar imzolandi hamda Buyuk Britaniya, Vengriya, Germaniya, Koreya, AQSh, Turkiya, Yaponiya va barcha Markaziy Osiyo davlatlari bilan, shuningdek, BMT, Jahon banki, YUNESKO, ShHT, Islom taraqqiyot banki, Yevropa iqtisodiy komissiyasi, MDH va boshqa tashkilotlar bilan yaqindan aloqalar o'rnatilgani ham soha rivojiga xizmat qilmoqda.

Davlat ta'lim standartlarining bakalavriat va magistratura ta'lim dasturlarini o'zlashtirish natijalariga qo'yadigan zamonaviy talablarida ko'rsatilishicha, oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisida uning mehnat bozorida o'z-o'zini belgilashga ko'maklashadigan universal kompetensiyalar shakllangan bo'lishi lozim.

Bu, jumladan:

– axborotni qidirish, uni tanqidiy tahlil va sintez qilish, qo'yilgan vazifalarni hal qilishda tizimli yondashuvni qo'llay olish qobiliyati;

– qo'yilgan maqsad doirasida bajarilishi kerak bo'lgan vazifalarni aniqlay olish va ularni hal qilishning maqbul usullarini tanlay olish qobiliyati;

– o'z vaqtini boshqara olish, butun hayoti davomida ta'lim tamoyillari asosida o'z-o'zini rivojlantirish trayektoriyasini qura olish va uni amalga oshira olish qobiliyati.

Agarda talabalarga o'z bilim va intellektual rivojlantirish jarayonlarini boshqarish, ya'ni "o'z shaxsiy intellektini boshqarish" o'rgatilsa, zamonaviy tadqiqotlarda ta'kidlanganidek ta'lim oluvchilarda o'qitish natijalarini bashorat qilinishiga erishish mumkin.

Shuning uchun ham bugungi kunda talabalarda katta axborot oqimida mustaqil yo'l topa olish, qo'yilgan vazifaning konkret detallariga e'tiborni qaratish va kasbga doir nostandart vaziyatlarda samarali qaror qabul qilish bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirish maqsadida ularning kasbiy tayyorlash yo'nalishlarini izlash va maqbul yondashuvlarni ishlab chiqish nihoyatda muhim.

Bu maqsadlarga o'z-o'zini boshqarish va o'z-o'zini nazorat qilish darajasida amalga oshiriladigan to'yingan intellektual faoliyat sharoitlarida, ya'ni mustaqil ta'lim olish sharoitlarida erishish mumkin.

Zamonaviy tadqiqotlarda shaxsning intellektual faoliyati "ichki" va "tashqi" birligining dinamik, iyerarxiyaviy, mantiqiy tizimi" sifatida; subyektning o'z-o'zi bilan, boshqa insonlar bilan, atrof olam va axborotlar bilan o'zaro aloqasi sifatida ko'riladi

Ushbu o'zaro aloqa jarayonida quyidagilar sodir bo'ladi:

– nazariy va amaliy masalalarni hal qilishda intellektual faollik, shiddat va harakatlarning namoyon bo'lishi;

– yangi muammoli vaziyatlar sharoitlariga moslashish, bilimlarni oqilona va intuitiv transformatsiyasi asosida intellektual harakatlar va operatsiyalarni amalga oshirish;

– predmetning mahsulotga aylanishi.

Shubhasiz, kasb maydonida talabaning intellektual faoliyati tajribasini shakllantirish maqsadida ularning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish va o'z-o'zini boshqarishi asosida uni optimallashtirishning zamonaviy usullarini tadqiq qilish va ularni keyinchalik oliy maktablarning ta'lim amaliyotida qo'llash lozim.

**Turli yosh bosqichlaridagi intellektual yuklama mu-**



## mosi bo'yicha nazariy-empirik tadqiqotlar sharhi.

Bugungi kunda neyrofiziologiya sohasida bosh miyaning salomatligi va uzoq umr ko'rishini nazarda tutuvchi ruhiy "forma" va to'laqonli hayotni saqlab turish uchun intellektual mashqlarning zarurligini isbotlovchi yetarlicha eksperimental ma'lumotlar to'plangan.

Yosh o'tishi bilan neyronli to'rda signallarni uzatish tezligi pasayib va miya strukturalarning (gippokamp va bosh miyaning peshona qismi) hajmi kichrayib borar ekan, bu reaksiyalarning tezligiga va oliy ruhiy funksiyalarning sifatiga, xususan xotira va rejalashtirish jarayonlariga ta'sir qiladi.

Bundan tashqari, gippokamp neyrogenez, ya'ni yangi nerv hujayralarini ishlab chiqish jarayoni bilan bog'liq, muvofiq ravishda, mnemotexnikalarning qo'llanilishi bosh miyaning qarish jarayonlarini to'xtatib turadi [3]. Xususan, neyrofiziologik tadqiqotlarni olib borishda katta yoshdagi shaxslarda bosh miyaning nerv hujayralarida qaytarib bo'lmaydigan degenerativ jarayonlarni tiklash va to'xtatib turishga ko'maklashadigan tizimli aqliy mashg'ulotlar o'tkazishning samaradorligi asoslab berildi.

O'ng va chap yarimsharlar funksiyalarining pasayishi keng ko'lamli idrok va yangilikni qabul qilishdagi qiyinchiliklarga ta'sir ko'rsatadi [1, 245].

Bugungi kunda yarimsharlararo o'zaro ta'sir intellekt rivojlanishining asosi ekanligi allaqachon o'z isbotini topgan; masalan, yarimsharlararo o'zaro ta'sirning maktabda bilim olishning muvaffaqiyatli bo'lishiga hamda kichik maktab yoshidagi bolaning intellektual rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi aniqlangan.

Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlarda [4, 56] hozirgi kundagi ta'lim amaliyotida axborotni obrazli shaklda qayta ishlab beradigan o'ng yarimshar ishining ahamiyati yetarlicha hisobga olinmaydi, chunki bunday axborot xotirada uzoq vaqt saqlanib turadi. "...qisqa vaqt ichida juda qattiq harakat qilmasdan yaxshi eslab qolish mumkin" ekanligi ko'rsatib berildi.

Xorijiy neyrofiziologlar tajribasi bir qator shartlarni ishlab chiqish imkonini berdiki, ularga amal qilish miyaning samarali ishlashi va barcha intellektual jarayonlarning maksimal darajada samarador bo'lishi uchun nihoyatda muhim.

Birinchidan, bosh miyaning barcha zonalariga, ayniqsa ruhiy jarayonlarning ixtiyoriy boshqarilishini ta'minlash bilan to'g'ridan to'g'ri bog'liq bo'lgan peshona qismiga kislorod va ozuqa moddalarining maksimal darajada yetib borishini ta'minlaydigan qon oqimi kuchayishi kerak. Shunchaki oddiygina she'r yodlaganda yoki krossvord yechgandagiga nisbatan masalalarni yechish va intellektual o'yinlar jarayonida, masalan, Shulte jadvali bilan mashg'ulot olib borganda,

bosh miya peshona qismi miya substratining intellekt va sonning qaror qabul qilish jarayoniga javob beruvchi zonasi-ning faollashuvi sodir bo'ladi.

Buni shunday izohlash mumkin: "verbal masalalarni yechishda ham, arifmetik masalalarni yechishda ham chap yarimsharning peshona va markaziy bo'limlarida biopotensiallarning distant sinxronlashuvi o'sadi, bundan tashqari matematik masalalarni yechishda boshning tepa va ensa bo'limlarida faollashuvning qo'shimcha fokusi yuzaga keladi" [2, 103].

Bunda algoritmgaga ko'ra yengil harakatlari bajarish chap yarimsharning orqa bo'limlari tomonidan ta'minlanadi, qiyin harakatlarda — faollashtirish fokusi chap yarimsharning oldingi bo'limlariga ko'chib o'tadi.

Ikkinchidan, kerakli axborotni uzoq muddatli xotira qatlamlaridan operativ xotiraga o'tkazish uchun xotirani safarbar qilish muhim.

Uchinchidan, hamma zarur intellektual resurslarni dolzarblashtirish uchun diqqatning barcha tomonlarini faollashtirish talab qilinadi [5].

Shunday qilib, bizning nazarimizda, miyani ishchi holatda ushlab turish va uni uzoq yillar mobaynida maksimal darajada ishlashga majburlash uchun ilk bosqichlardayoq turli xil intellektni rivojlantirish texnikasi va metodikalari yordamida har kunlik intellektual yuklamalarni bajarish "odatini" shakllantirish kerak. Neyropsixolog E. Goldberg har kuni 1 minutdan yoki haftada ikki marta 10 minutdan intensiv intellektual mashg'ulotlar, breyn-fitness bilan shug'ullanishni tavsiya qiladi.

Zamonaviy axborot voqeligi talablari talabani kasbiy ta'lim sharoitlarida o'qitish uchun yangi yo'l va yondashuvlarni izlab topishni nazarda tutadi.

Kasbiy tayyorgarlikning asosiy vazifasi bugungi kunda talabani "o'qishga" o'rgatish zaruratida, ya'ni bilim olish jarayonini boshqarishga o'rgatish zaruratida ko'rilmogda. Bu jarayon axborotni qabul qilishdan boshlab, unga tanqidiy baho berish, keyinchalik kasbiy vazifalarni bajarishda konkret vaziyatlarda qo'llash vaqti kelgunicha uni eslab qolishni o'z ichiga oladi.

Buning uchun talaba:

- intellektual faoliyatni optimallashtirishning turli xil usullarini egallashi lozim (neyrobika, intellekt-karta texnikasi, metaplan-texnikasi);
- diqqat, tasavvur, motivatsiyani boshqarish bilimlarini shakllantirishi kerak;
- uning mnemik qobiliyatlarini rivojlantirish va turli xil mnemotexnik usullarni o'rganishi kerak;
- konstruksiyalash va belgili-ramzli shakllarga (intellekt-karta, metaplan, tayanch konspekt) kodlashtirish orqali axborot oqimlari bilan ishlashni o'rganishi lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. P.I. Ivanov, M.E. Zufarova. Umumiy psixologiya: Pedagogika va psixologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabarlari uchun darslik. — T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. 480 b.
2. Zufarova, M.E. Umumiy psixologiya: o'rta maxsus, litsey va kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'qituvchi va o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma. — T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010. — 304 b.

5. Platonova Y.A. Intellektni boshqarish: hayot davomida talabani metakognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish / ammolari / Yu.A.Platonova, S.V.Tixonov, G.P.G. Ignatius // Raqamli olim faylasuflar laboratoriyasi — 2018. — 1-jild. — №1. — 50-66 b.
4. Psixofiziologiya. Lugʻat / Muallif. MM. Bezrukix, D.A. Farber // Psixologik leksikon. Olti jildda ensiklopedik lugʻat / Ed.-komp. L.A. Karpenko. Umumiy ostida Ed. A.V. Petrovskiy. — M.: PER SE, 2006. — 128 b.
5. Rudyka Yu.P. Interhemisferik aloqalar, ularning shakllanishi va bolaning intellektual rivojlanishiga taʼsiri / Yu.P. Rudyka // Oʻqituvchilarning kasbiy taʼlimi tizimida kompetensiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirish: V Butunrossiya ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari. — Simferopol: Arial nashriyoti, 2018. — 55-58 b.



## OLIIY TA'LIMDA, FIZIKA FANI LABORATORIYA MASHG'ULOTLARINI OLIB BORISHDA INNOVATSION TA'LIM METODLARINI QO'LLASH

**Valijon Rahmanov,**

Guliston davlat universiteti Axborot texnologiyalari va fizika-matematika fakulteti "Fizika" kafedrasida o'qituvchisi

### **Annotatsiya**

*Oliy ta'limdagi fizika laboratoriya kurslari talabalarning fundamental ilmiy tamoyillarni tushunishlarini rivojlantirishda, tanqidiy fikrlash, muammoli masalalarni yechish va eksperimental ko'nikmalarni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. An'anaviy laboratoriya jihozlari o'nlab yillar davomida odatiy hol bo'lib kelgan, ammo innovatsion ta'lim usullari ushbu kurslarning samaradorligi va faolligini sezilarli darajada oshirishi mumkinligi tobora ortib bormoqda. Ushbu maqola oliy ta'limda fizika laboratoriya kurslarida qo'llaniladigan turli innovatsion ta'lim usullari va ularning talabalarning o'quv natijalari va umumiy ta'lim tajribasiga ta'sirini o'rganadi.*

**Kalit so'zlar:** intensiv, interaktiv, innovatsion, gipoteza, Aqliy hujum, kreativ, muqobil, Qanday, Bliss, texnologiya, funksiyasi.

### **Аннотация**

*Лабораторные курсы по физике в высших учебных заведениях играют решающую роль в содействии пониманию студентами фундаментальных научных принципов и развитию критического мышления, решения проблем и экспериментальных навыков. Традиционные лабораторные установки были нормой на протяжении десятилетий, но растет признание того, что инновационные методы обучения могут значительно повысить эффективность и привлекательность этих курсов. В этой статье исследуются различные инновационные методы обучения, применяемые в лабораторных курсах по физике в высших учебных заведениях, и их влияние на результаты обучения студентов и общий образовательный опыт.*

**Ключевые слова:** интенсивный, интерактивный, инновационный, гипотеза, мозговой штурм, творческий, альтернативный, Как, Блаженство, технология, функция.

### **Annotation**

*Physics laboratory courses in higher education play a crucial role in fostering students' understanding of fundamental scientific principles and developing critical thinking, problem-solving, and experimental skills. Traditional laboratory setups have been the norm for decades, but there is a growing recognition that innovative educational methods can significantly enhance the effectiveness and engagement of these courses. This article explores the various innovative educational methods being applied to physics laboratory courses in higher education and their impact on student learning outcomes and overall educational experiences.*

**Keywords:** intensive, interactive, innovative, hypothesis, brainstorming, creative, alternative, How, Bliss, technology, function.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga ko'ra 2021/2022-o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim tizimida fizika fanlarini sohalarga moslashtirilgan holda o'qitishni yo'lga qo'yish masalasi belgilangan [1].

O'zbekiston Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlaridan bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim jarayonini tashkil etishda har tomonlama yetuk, barkamol avlodni yetishtirish uchun o'quvchi shaxsini rivojlantirish maqsadida har bir ta'lim bosqichida pedagogik tizimning barcha tarkibiy qismlari (ta'lim tarbiya maqsadi, mazmuni, metodi, vositalari, tashkiliy shakllari)ni mu-